


## Sirdaryo viloyatining sanoat ishlab chiqarishi (2021- yil yanvar-sentabr)


Dastlabki ma'lumotlar bo'yicha 2021- yilning yanvar-sentabr oylarida viloyat korxonalarini tomonidan 6844,3 mlrd. so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan bo'lib, 2020- yilning yanvar-sentabr oylariga nisbatan sanoat ishlab chiqarishning fizik hajm indeksi 118,5 % ni tashkil etdi.

Sanoat ishlab chiqarish tarkibida eng katta ulush ishlab chiqaradigan sanoat hissasiga to'g'ri kelib, uning jami sanoat ishlab chiqarishdagi ulushi 56,9 % ni tashkil etdi.



**B**–Tog‘-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash, **C**–Ishlab chiqaradigan sanoat **D**–Elektr, gaz, bug‘ bilan ta‘minlash va havoni konditsiyalash, **E**–Suv bilan ta‘minlash; kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig‘ish va utilitatsiya qilish.

### Asosiy iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha sanoat ishlab chiqarish, FHI\* % da




Jami sanoat ishlab chiqarish fizik hajmi o'sishining asosiy omili bo'lib, ishlab chiqaradigan (qayta ishlash) sanoati 27,1 % ga gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalashning 9,7 % ga, o'sishi kuzatildi.


Shuningdek, suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilitatsiya qilish sanoatida 16,7 % ga, tog'-kon sanoatida 42,0 % ga pasayishi kuzatildi.

## Togʻ-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash sanoatining jami sanoat mahsulotlari hajmidagi ulushi, % da

Togʻ-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash korxonalari tomonidan 2021- yilning yanvar-sentabr oylarida ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 42,6 mlrd. soʻmni yoki jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 0,6 % ini tashkil etdi.




## Ishlab chiqaradigan sanoat




2021- yilning yanvar-sentabr oylarida ishlab chiqaradigan sanoat korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 3897,0 mlrd. soʻmni yoki jami sanoat mahsulotlarining 57,0 % ini tashkil etdi.

O'tgan yilning mos davri bilan solishtirganda ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida yuqori texnologiyali tarmog'ining hajmi 133,5 mlrd. so'm (jamiga nisbatan ulushi 2,0 %), o'rta-yuqori texnologiyali 175,1 mlrd. so'm (jamiga nisbatan ulushi 2,6 %), o'rta-quyi texnologiyali 814,0 mlrd. so'm (jamiga nisbatan ulushi 11,9 %), quyi texnologiyali 2774,4 mlrd. so'm (jamiga nisbatan ulushi 40,5 %) ni tashkil etdi.

## Yuqori texnologiyali



## O'rta-yuqori texnologiyali



## O'rta-quyi texnologiyali



## quyi texnologiyali



**Ishlab chiqaradigan sanoatda ayrim turdagi  
mahsulotlarning o'lish sur'ati**

2021- yilning yanvar-sentabr oylari davomida ishlab chiqaradigan sanoatda 494,0 ming l. 100% spirti (2020- yilning yanvar-sentabr oylariga nisbatan 59,8 % ga kamaygan), 719,9 tonna bint (0,2 %) kamaygan bo'lsa, 41,4 ming tonna yumshoq bug'doy va spelta uni (22,6 %) ishlab chiqarilib kamayishi kuzatildi.

Sanoat mahsulotlari	2020- yil yanvar- sentabr	2021- yil yanvar- sentabr	Farqi +/-
Yumshoq bug'doy va spelta uni, ming tonna	53,5	41,4	-12,1
Aroq, ming l. 100% spirt	1229,8	494,0	-735,8
Sellyuloza, tonna 90%	1329,9	1226,6	-103,3
Paxta tolasi, ming tonna	4,9	11,4	6,5
Paxta chigiti, ming tonna	8,4	18,2	9,8
Paxta tiviti (lint), ming tonna	0,4	1,1	0,7
Yirik shoxli qoramollar uchun tayyor ozuqa, ming tonna	22,7	16,9	-5,8
Etilen polimer qoplar, ming tonna	13,2	12,6	-0,6
Issqlik elektr markazlari (IEM) ishlab chiqargan elektr energiyasi, mln.kVt/s	10216,7	11237,7	1021

Bugʻ va issiq suv (issiqlik energiyasi), ming Gkal

64,2

99,7

35,5

## Iqtisodiy faoliyat turlari boʻyicha sanoat mahsuloti ishlab chiqarish (yirik korxonalar boʻyicha)



Yumshoq bugʻdoy  
va spelta uni

**41,4**  
ming tonna



Aroq

**494,0**  
ming l. 100% spirt




Sellyuloza

**1226,6**  
tonna 90%



Paxta chigiti

**18,2**  
*ming tonna*



Paxta tiviti (lint)

**1,1**  
*ming tonna*



Paxta tolasi

**11,4**  
*ming tonna*



Etilen polimerli qoplar

**12,6**  
*ming tonna*



Issiqlik elektr  
markazlari (IEM)  
ishlab chiqargan  
elektr energiyasi

**11237,7**  
*mln.kVt/s*



Bug‘ va issiq suv  
(issiqlik energiyasi)

**99,7**  
*ming Gkal*





Yirik shoxli  
qoramollar uchun  
tayyor ozuqa

**16,9**  
*ming tonna*

## Elektr, gaz, bug‘ bilan ta‘minlash va havoni konditsiyalash 2021- yilning yanvar-sentabr oylarida

Elektr, gaz, bug‘ bilan ta‘minlash va havoni konditsiyalash korxonalarini tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 2856,1 mlrd. so‘mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining (41,7 % ini) tashkil etdi.

2021- yilning yanvar-sentabr oylarida, sanoatning mazkur tarmog‘ida elektr energiyani ishlab chiqarish, uzatish va taqsimlash, bug‘ bilan ta‘minlash tizimlari va havoni konditsiyalash o‘tgan yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi 9,7 % ga oshganligi kuzatildi.




## Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash sohasida yirik sanoat korxonalari tomonidan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish

Sanoat mahsulotlari	2020- yil yanvar-sentabr	2021- yil yanvar-sentabr	Farqi +/-
Elektroenergiya, mln.kVt/s	10216,7	11237,7	1021
Issiqlik energiyasi, ming gkal	64,2	99,7	35,5

## Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish


Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 48,6 mlrd. so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 0,7 % ini) tashkil etdi.



2021- yilning yanvar-sentabr oylarida, sanoatning mazkur tarmog'ida suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish o'tgan yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi 16,7 % ga pasayishi kuzatildi.

### Iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish

Tayyor mahsulotlar turlarini kengaytirish va ishlab chiqarilishini qo'llab iste'mol tovarlar ishlab chiqarish hajmi 2517,7 mlrd. so'mni tashkil etdi va 2020- yilning mos davriga nisbatan 24,5 % ga o'sishi kuzatildi, jami sanoatdagi ulushi esa 36,8 % ni tashkil etdi.



Oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish tarkibida sharob va aroq mahsulotlari 3,1 % ni (2020- yil yanvar-sentabr oylarida 3,8 %) tashkil etdi.

Hududlar kesimida iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarilishining viloyat jami hajmidagi eng yuqori ulushi Sirdaryo tumaniga to'g'ri kelib 34,3 % ni, shuningdek, Guliston shahri 18,7 % ni hamda Mirzaobod tumani 8,6 % ni tashkil etdi.


Shuningdek, iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarilishning o'sish sur'atida viloyat (124,5 %) darajasidan yuqori ko'rsatkich Sirdaryo tumanida (163,7 %) va Mirzaobod tumanida (106,8 %) qayd etildi.

**Hududlar bo'yicha iste'mol mahsulotlari ishlab  
chiqarish hajmi, tarkibi va o'sish sur'ati  
(2021- yilning yanvar-sentabr oylarida)**

	Mrd. so'm	Jamiga nisbatan ulushi, % da	2020-yil yanvar-avgust oylariga nisbatan, % da
<b>Sirdaryo viloyati</b>	<b>2517,7</b>	<b>100,0</b>	<b>124,5</b>
<b>Guliston sh.</b>	<b>470,0</b>	<b>18,6</b>	<b>107,4</b>
<b>Shirin sh.</b>	<b>18,9</b>	<b>0,8</b>	<b>104,2</b>
<b>Yangiyer sh.</b>	<b>190,3</b>	<b>7,5</b>	<b>119,4</b>
<i>tumanlar:</i>			
<b>Boyovut</b>	<b>98,9</b>	<b>3,9</b>	<b>102,9</b>
<b>Guliston</b>	<b>145,2</b>	<b>5,8</b>	<b>120,3</b>
<b>Mirzaobod</b>	<b>216,7</b>	<b>8,6</b>	<b>106,8</b>
<b>Oqoltin</b>	<b>142,8</b>	<b>5,7</b>	<b>110,2</b>
<b>Sardoba</b>	<b>60,3</b>	<b>2,4</b>	<b>106,1</b>
<b>Sayxunobod</b>	<b>196,6</b>	<b>7,8</b>	<b>116,7</b>
<b>Sirdaryo</b>	<b>863,1</b>	<b>34,3</b>	<b>163,7</b>
<b>Xovos</b>	<b>114,9</b>	<b>4,6</b>	<b>109,4</b>

## Xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar tomonidan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish

Hisobot davrida xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar tomonidan 1310,5 mlrd. soʻmlik mahsulot ishlab chiqarildi.




Hisobot davrida xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalarning umumiy ishlab chiqarishdagi ulushi 19,1 % ni tashkil etdi.

Hududlar kesimida xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalarning umumiy sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi eng yuqori ulushi Sayhunobod tumani (jami sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi ulushi 50,3 %), Sirdaryo tumani (54,7 %), Guliston shahri (39,6 %) hamda Sardoba tumanlarida (80,4 %) kuzatildi.

**Hududlar kesimida sanoat mahsulotlari  
ishlab chiqarish hajmi va indeksi**

	2021-yil yanvar- sentabr mlrd. so'm	Fizik hajm indeksi, % da
<b>Sirdaryo viloyati</b>	<b>6844,3</b>	<b>118,5</b>
<b>Guliston sh.</b>	<b>758,2</b>	<b>102,8</b>
<b>Shirin sh.</b>	<b>2668,3</b>	<b>107,8</b>
<b>Yangiyer sh.</b>	<b>485,8</b>	<b>108,7</b>
<i>tumanlar:</i>		
<b>Boyovut</b>	<b>298,4</b>	<b>110,8</b>
<b>Guliston</b>	<b>226,1</b>	<b>124,3</b>
<b>Mirzaobod</b>	<b>225,3</b>	<b>101,9</b>
<b>Oqoltin</b>	<b>238,3</b>	<b>122,0</b>
<b>Sardoba</b>	<b>172,8</b>	<b>124,4</b>
<b>Sayxunobod</b>	<b>276,4</b>	<b>104,4</b>
<b>Sirdaryo</b>	<b>1256,3</b>	<b>109,0</b>
<b>Xovos</b>	<b>238,4</b>	<b>121,2</b>

## Viloyatda ishlab chiqarish hajmida hududlar sanoat mahsulotlarining ulushi, % da




Viloyat sanoat ishlab chiqarish hajmi tarkibida eng ko'p ulushi Shirin shahri (viloyat sanoat ishlab chiqarish hajmning 38,9 %), Sirdaryo tumani (18,4 %), Guliston shahri (11,1 %), Yangiyer shahri (7,1 %), hamda Oqoltin tumani (3,5 %), Sayxunobod tumani (4,0 %), va Boyovut (4,4 %) tumanlar hissasiga to'g'ri kelmoqda.

Eng past ko'rsatkich esa Mirzaobod tumani (3,3 %) Guliston tumani (3,3 %) hamda Sardoba tumani (2,5 %)ga to'g'ri kelmoqda.

**Aholi jon boshiga to'g'ri keladigan sanoat mahsulotlari va  
iste'mol mollari ishlab chiqarish**  
*(2021- yil yanvar-sentabr oylari, ming so'mda)*

	<b>Sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish</b>	<b>Iste'mol mollari</b>
<b>Sirdaryo viloyati</b>	<b>7890,6</b>	<b>2902,6</b>
<b>Guliston sh.</b>	8214,9	5091,8
<b>Shirin sh.</b>	140435,4	994,7
<b>Yangiyer sh.</b>	10893,0	4266,7
<i>tumanlar:</i>		
<b>Boyovut</b>	2251,9	746,4
<b>Guliston</b>	3022,3	1941,0
<b>Mirzaobod</b>	2972,8	2858,3
<b>Oqoltin</b>	4470,1	2678,9
<b>Sardoba</b>	2564,0	895,4
<b>Sayxunobod</b>	3499,2	2488,1
<b>Sirdaryo</b>	9597,3	6594,3
<b>Xovos</b>	2437,7	1174,6

## Aholi jon boshiga to'g'ri keladigan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish va iste'mol mollarining o'sishi (2020- yil yanvar-sentabr oylariga nisbatan, % da)




**Viloyatdagi hududiy sanoat korxonalari tomonidan ishlab  
chiqarilgan mahsulotlar hajmi va ulushi**  
(2021- yil yanvar-sentabr oylarida)

	<b>Mahsulot hajmi (mlrd. so‘m)</b>	<b>Jamiga nisbatan ulushi, % da</b>
<b>Sirdaryo viloyati</b>	<b>2211,7</b>	<b>32,3</b>
<b>Guliston sh.</b>	<b>353,9</b>	<b>46,7</b>
<b>Shirin sh.</b>	<b>20,4</b>	<b>0,8</b>
<b>Yangiyer sh.</b>	<b>249,6</b>	<b>51,4</b>
<b>tumanlar:</b>		
<b>Boyovut</b>	<b>268,6</b>	<b>90,0</b>
<b>Guliston</b>	<b>59,3</b>	<b>26,2</b>
<b>Mirzaobod</b>	<b>75,5</b>	<b>33,5</b>
<b>Oqoltin</b>	<b>227,3</b>	<b>95,4</b>
<b>Sardoba</b>	<b>172,8</b>	<b>100,0</b>
<b>Sayxunobod</b>	<b>98,1</b>	<b>35,5</b>
<b>Sirdaryo</b>	<b>525,8</b>	<b>41,9</b>
<b>Xovos</b>	<b>160,4</b>	<b>67,3</b>

**Sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishda kichik biznesning  
ulushi, % da**

Hisobot davrida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan 2713,6 mlrd. soʻmlik sanoat mahsuloti ishlab chiqarilib, uning umumiy ishlab chiqarish hajmidagi ulushi 39,6 % ni tashkil etdi.



Hududlar kesimida kichik biznesning sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi eng yuqori ulushi Sardoba tumani (jami sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi ulushi (100,0 %), Mirzaobod tumani (79,3 %), Boyovut tumani (90,6 %), Sayxunobod tumani (57,9 %), Xovos tumani (86,1 %) Guliston shahri (68,2 %) hamda Yangiyer shahrida (55,9 %) kuzatildi.


Viloyatimiz hududlari kesimida sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmida kichik biznes subyektlarining ulushi tahlili shuni koʻrsatdiki, Sirdaryo tumani (53,6 %), Guliston tumani (45,0 %), Oqoltin tumani (59,3 %), hamda Shirin shahrida (0,8 %) sanoat ishlab chiqarish hajmlaridagi kichik biznes subyektlari ulushining kamligini, mazkur hududlarda joylashgan yirik sanoat korxonalarining ishlab chiqarish hajmlari yuqori ekanligi bilan izohlash mumkin.

## Viloyatda faoliyat yuritayotgan va yangi tashkil etilgan sanoat korxonalari


(2021-yil 1-oktabr holatiga ko'ra)

Bugungi kunda viloyatda 2311 ta sanoat korxonalari faoliyat ko'rsatmoqda, shundan 591 tasi (faoliyat yuritayotgan korxonalar umumiy sonining 25,6 %) Guliston shahriga, 372 tasi (16,1 %) Sirdaryo tumaniga, 204 tasi (8,8 %) Yangiyer shahriga to'g'ri kelmoqda.

### Yangi tashkil etilgan korxonalar soni, birlikda



### Faoliyat yuritayotgan korxonalar soni, birlikda



2021- yil yanvar-sentabr oylarida viloyatda 389 ta yangi sanoat korxonalari tashkil etildi, ularning 44,7 foizi Guliston shahriga, Boyovut tumani, Mirzaobod tumani va Sirdaryo tumaniga to'g'ri keladi.

**Sanoat statistikasi bo'limi**

Aloqa telefoni: (067) 236-86-23